

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4862-son Qaroriga muvofiq, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratilgan loyihalar to‘g‘risida**

**MA'LUMOT**

| <b>№</b> | <b>Tashkilot nomi</b>                     | <b>Loyiha nomi</b>                             | <b>Loyiha miqdori<br/>(mln. so‘m)</b> | <b>Loyihaning maqsadi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | <b>Loyihadan kutilayotgan natija</b>                                                                                          |
|----------|-------------------------------------------|------------------------------------------------|---------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.       | <b>“Loyihalar boshqaruvi markazi” NNT</b> | “Chegarasiz” loyihasi                          | 500,0                                 | Yoshlarni o‘z maqsadlari uchun harakat qilishi, har qanday vaziyatda ham taslim bo‘lmaslik, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga astoyidil intilish, imkoniyatlardan oqilona foydalana olishga undash, shuningdek, ushbu xislatlarni o‘zida mujassam etgan insonlarni namuna sifatida ko‘rsatish orqali millionlab yoshlarga motivatsiya berish, ularni doimiy ruhlantirib borishga qaratilgan videoroliklar tasvirga olish. | Mamlakatimizda yoshlarga o‘rnak bo‘la oladigan faol yoshlar to‘g‘risida <b>12 ta</b> motivatsion ijtimoiy rolik tayyorlanadi. |
| 2.       |                                           | “Modul 5” motivatsion-ilmiy ko‘rsatuv loyihasi | 360,0                                 | Yoshlarning innovatsion g‘oya va loyihalari, tadbirkorlik tashabbuslari, shuningdek ichki motivlarini yuzaga chiqarish, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda turtki bo‘lish maqsadida mamlakatimizda muvaffaqiyatga erishgan insonlar bilan uchrashuvlarni tashkil etish va tasvirga olish.                                                                                   | <b>12 ta</b> ijtimoiy motivatsion ko‘rsatuv tayyorlanadi.                                                                     |
| 3.       |                                           | “DESIGN CLUB” loyihasi                         | 320,0                                 | Grafik va veb dizayn sohasini rivojlantirish, O‘zbekistonda                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | Grafik va veb dizayn sohasini rivojlantirish, O‘zbekistonda grafik                                                            |

|    |                                                                             |                                                                    |       |                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                  |
|----|-----------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|-------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    |                                                                             |                                                                    |       | grafik dizayn sohasi vakillaridan iborat "community"ni shakllantirish orqali yoshlarning zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishini oshirish, shuningdek, qo'llab-quvvatlash hamda o'zini-o'zi band qilishlariga ko'maklashish maqsadida soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish. | dizayn sohasi vakillaridan iborat jamoani shakllantiriladi va <b>12 ta</b> motivatsion video-rolik tayyorlanadi.                                                                                                                 |
| 4. |                                                                             | "Marketing Uz" loyihasi                                            | 320,0 | Biznes egalari yoki o'z biznesini boshlamoqchi bo'lganlar uchun bozorni o'rganish, biznesda marketingni o'rni haqida tajribali marketologlar yordamida ma'lumot berish va bo'lajak marketologlar o'rtasida hamjamiyat yaratish.                                                             | Marketing yo'nalishi bo'yicha muvaffaqiyatga erishgan soha egalari bilan birgalikda <b>12 ta</b> motivatsion rolik tayyorlanadi.                                                                                                 |
| 5. | <b>"O'zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash markazi" NNT</b> | "Biznesga qadam" loyihasi                                          | 648,0 | O'zbekiston yoshlari uchun sifatli biznes-videodarslari majmuini yaratish va ushbu videodarslar orqali 1 yil ichida 250 dan 2500 gacha yoshlarni tadbirkorlikka masofaviy o'qitish.                                                                                                         | O'zbekiston yoshlari uchun <b>30 ta</b> biznes-videodarslardan iborat o'quv majmuasini yaratiladi.                                                                                                                               |
| 6. | <b>Ijtimoiy media loyihalar markazi NNT</b>                                 | - "Bizdan maslahat" ko'rsatuvi;<br><br>- "Men kimman?" ko'rsatuvi. | 499,0 | <b>1. "Bizdan maslahat" ko'rsatuvi:</b><br>- Xorijga o'qish yoki ishlash istagida chiqmoqchi bo'lgan yoshlar uchun batafsil ma'lumot yangicha yondashuvda taqdim etish;<br>- Shu orqali yurtimiz yoshlarini chet davlatiga                                                                  | <b>1. "Bizdan maslahat" ko'rsatuvi:</b><br><br>Davomiyligi: <b>10 daqiqa</b><br>Jami soni: <b>16 ta har xil mamlakatdan 16 ta video material</b><br><br><b>2. "Men kimman?" ko'rsatuvi:</b><br><br>Davomiyligi: <b>10 daqiqa</b> |

|    |                                                 |                                    |         |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|----|-------------------------------------------------|------------------------------------|---------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    |                                                 |                                    |         | <p>chiqishdan avval u yer haqida muayyan tushunchalarga ega bo'lishlariga zamin yaratish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O'zga davlat qonun-qoidalari, tartib-intizomlarini bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan turli muammolarning oldini olish.</li> </ul> <p><b>2. "Men kimman?" ko'rsatuvi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Kelajakda muayyan bir kasbni tanlash arafasida turgan yoshlarga zamonaviy kasblar haqida to'liq tushuncha berish;</li> <li>- Shu orqali kasb tanlash borasida bir qarorga kela olmay yurgan yoshlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish;</li> <li>- Yoshlarda biron-bir kasbni tanlab, yurt ravnaqiga hissa qo'shishlariga rag'bat uyg'otish.</li> </ul> | <p>Jami soni: <b>44 xil sohada 44 ta video material</b></p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| 7. | <b>O'zbekiston yosh fermerlari Kengashi NNT</b> | "Fermerlarning 12 yoquti" loyihasi | 718,0   | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Yoshlarning agrar sohaga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish - sohadagi stereotiplarga qarshi kurashish;</li> <li>- Yoshlarning qishloq xo'jaligi va undagi faoliyat turlariga bo'lgan qiziqishini oshirish;</li> <li>- Yosh fermerlarning sohadagi ulushini oshirishga erishish.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | <p>Agrar sohadagi <b>12</b> yo'nalishni qamrab olgan holda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qishloq xo'jaligining yo'nalishlarini yoritib beradigan <b>24 ta qisqa metrajli motivatsion roliklar</b> yaratish;</li> <li>- Agrar sohaning agromentorlarini jalb qilgan holda <b>24 qismdan iborat "kouching" video materiallar</b> ishlab chiqish.</li> </ul> |
| 8. | <b>O'zbekiston milliy</b>                       | "O'zbekistonlik" hujjatli filmini  | 1 800,0 | Xorijdagi O'zbekistonliklarga nisbatan noo'rin stereotiplar yo'qotish maqsadida                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Mazkur film orqali dunyo bo'ylab muvaffaqiyatga erishgan yoshlar haqida ta'sirli hikoya qilib bergan holda,                                                                                                                                                                                                                                                               |

|             |                                |                        |                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                            |
|-------------|--------------------------------|------------------------|----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|             | <b>kinokomissiyasi<br/>NNT</b> | tayyorlash<br>loyihasi |                | AQSHning nufuzli universitetlarida ta'lim olayotgan ham yurtlarimiz, ishbiarmonlar, turli xalqaro tashkilotlar hamda nufuzli kompaniyalarda o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan O'zbekistonlik yoshlar hayoti hamda muvaffaqiyatga erishish uchun bosib o'tgan hayot yo'llari haqida hujjatli film olish. | boshqa yurtdoshlarimiz va hatto dunyoning o'zga davlatlari fuqarolari hamda millatlari vakillarida O'zbekistonga nisbatan ijobiy imidjini yaratadigan, yoshlarda motivatsion kayfiyat uyg'otadigan <b>hujjatli filmini</b> ishlab chiqish. |
| <b>JAMI</b> |                                |                        | <b>5 165,0</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                            |